



STEAM YONDASHUVI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

(PhD) dots. **Shobduraximova Umriniso**

Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika yo 'nalshi 2-bosqich
magistranti. Andijon, O'zbekiston*

Telegram manzil: Lady0203

Mobil raqam: +998905280743

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda STEAM yondashuvining pedagogik imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqotda STEAM texnologiyasining mazmun-mohiyati, maktabgacha ta'lim jarayoniga joriy etish usullari hamda ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalarda kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish, tasavvur va fantaziyaning shakllantirishda STEAM yondashuvining samaradorligi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, STEAM yondashuvi, ijodiy qobiliyat, kreativ fikrlash, integrativ ta'lim, innovatsion pedagogika, bolalar rivoji, ta'lim metodikasi.

Аннотация. В данной исследовательской работе изучаются педагогические возможности подхода STEAM в развитии творческих способностей детей дошкольного возраста. В исследовании освещены сущность и содержание технологии STEAM, методы ее внедрения в процесс дошкольного образования, а также ее значение в развитии творческой деятельности. Также теоретически обоснована эффективность STEAM-



подхода в формировании креативного мышления, самостоятельного решения проблемных ситуаций, воображения и фантазии у детей. Результаты исследования имеют важное значение при разработке методических рекомендаций для педагогов дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: Дошкольное образование, подход STEAM, творческие способности, креативное мышление, интегративное образование, инновационная педагогика, развитие детей, методика обучения.

Abstract. In this research work, the pedagogical possibilities of the STEAM approach in the development of creative abilities of preschool children are studied. The study highlights the essence and content of STEAM technology, methods of its implementation in the preschool education process, and its significance in the development of creative activity. Also, the effectiveness of the STEAM approach in the formation of creative thinking, independent solution in problem situations, imagination and fantasy in children is theoretically substantiated. The research results are important in the development of methodological recommendations for teachers of preschool educational organizations.

Keywords: Preschool education, STEAM approach, creative abilities, creative thinking, integrative education, innovative pedagogy, child development, educational methodology.

Bugungi globallashuv va tezkor texnologik rivojlanish sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi shaxsning keyingi rivojlanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi sababli, bu davrda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

STEM iborasi ilk bor Amerikalik bakterolog Rita Kolvell tomonidan 1990-yilda fanga kiritishni tashkil qilgan STEM so'zi 2000-yildan faol ishlatila bohlagan STEM qisqartmasiga san'at sohasini qo'shish taklifini Jorjette Yakman 2006-yilda bergan edi. SHu yildan boshlab STEM STEAM deb ishlatila boshladi. Bundan tashqari, ba'zi odamlar STEMga san'at qo'shish unchalik foydali emas deb o'ylashadi,



chunki STEMning asosiy maqsadi talabalarni fan, matematika, texnologiya va muhandislik sohalarida oliy ma'lumot va kasb egallashga undashdir. Biroq, san'at nafaqat rasm chizish yoki studiyada ishlash, balki muammolarni hal qilishning yangi usullarini kashf etish va yaratishdir. Bundan tashqari, STEAM tashabbusining asoschisi Jorjetta Yakman STEAMni "Matematika elementlariga asoslangan muhandislik va san'at orqali izohlanadigan fan va texnologiya" deb ta'riflaydi.¹

STEAM atamasi ingliz tilidagi Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at), Mathematics (matematika) so'zlarining bosh harflaridan tashkil topgan. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi — bolalarda bilimlarni alohida fanlar kesimida emas, balki hayotiy muammolarni hal qilish jarayonida kompleks holda shakllantirishdir.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’limda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv o‘qitish metodlari joriy etilmoqda. Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarda STEAM fanlariga alohida e’tibor qaratilgan. “STEAM Uzbekistan” platformasi orqali maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida STEAM yondashuvini integratsiya qilish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilgan. O‘zbekistonning ta’lim tizimida STEAM metodlarini qo‘llash orqali innovatsion tafakkurga ega avlodni tarbiyalash va xalqaro ta’lim standartlariga moslashish imkoniyati mavjud.²

Maktabgacha ta’lim tizimida STEAM yondashuvi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘yin, tajriba, konstruktorlik, tasviriy faoliyat va amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv bolalarda kuzatuvchanlik, mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammoga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

¹ “MODERN TRENDS OF TEACHING IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN HIGHER EDUCATION: PROSPECTS, PROBLEMS AND SOLUTIONS” INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE, NOVEMBER 29, 2024 “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR QOBILIYATINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH” G‘aybullayeva Dilnoza Akmalovna 379-382-p

² “MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK JARAYON SAMARADORLIGIGA TA’SIRI” Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi 71-son 4 –to‘plam May 2025 208-214-p



Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik, yangilikka intilish va tasavvur kengligi ularning ijodiy salohiyatini shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu bois ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlardan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday yondashuvlardan biri — STEAM ta'limidir.

STEAM yondashuvi bolalarni fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yo'nalishlarini o'zaro integratsiyalashgan holda o'rganishga undaydi hamda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda ijodiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va innovatsion g'oyalarga ega shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. STEAM yondashuvi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda joriy etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda STEAM yondashuvi orqali:

1. ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi;
2. muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topish qobiliyati shakllanadi;
3. jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalari rivojlanadi;
4. bolalarning tabiiy qiziqishi va faolligi oshadi.
5. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida bolalarning muvaffaqiyatli o'qishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogika fanida ijodiy qobiliyat shaxsning yangi g'oyalar yaratish, noodatiy yechimlar topish va mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Maktabgacha yosh davri esa ijodiy qobiliyatlarning faol rivojlanish bosqichi hisoblanadi.

STEAM yondashuvi nazariy jihatdan konstruktivizm va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvda bola ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Nazariy jihatdan STEAM yondashuvi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojini shakllantiradi.



Shuningdek, san'at elementlarining STEAM tizimiga kiritilishi bolalarda estetik did va ijodiy tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijodkorlik, mustaqillik va innovatsion fikrlashni ham shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvini maktabgacha ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ushbu yondashuvni amaliyotga keng tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Modern trends of teaching in the context of innovative and digital technologies in higher education: prospects, problems and solutions" international scientific and practical conference, november 29, 2024 "Maktabgacha yoshdagi bolalar qobiliyatini steam yondashuvi asosida rivojlantirish" G'aybullayeva Dilnoza Akmalovna 379-382-p
2. Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini qo'llashning pedagogik jarayon samaradorligiga ta'siri" Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi 71-son 4 – to'plam May 2025 208-214
3. Abdullaeva Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Hasanboev J. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2019.
5. Yakimanskaya I.S. Lichnostno-orientirovannoe obuchenie. – Moskva, 2018.
6. Bybee R. The Case for STEAM Education. – USA, 2017.